XALQ DEPUTATLARI ISHTIXON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 24-aprel VI-119-70-7-95-K/24 Ishtixon tumani

Ishtixon tumani hududidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risida Davlat kadastrlar palatasi Ishtixon filiali boshlig‘i H.Astonovning hisoboti haqida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini hatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 299-sonli Qaroriga, tuman hokimining 2024-yil 31 yanvardagi 15-7-95-F/24-sonli farmoyishiga, Respublika Aerogeodeziya markazi Samarqand hududlararo bo‘linmasi hamda tuzilgan komissiya tomonidan tumanning ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarni xatlovdan o‘tkazish ishlari natijalari ko‘rib chiqish bo‘yicha tuzilgan komissiyaning 2024-yil 02-apreldagi 1/05-sonli yig‘ilish bayoniga, Davlat kadastrlar palatasi Ishtixon filiali boshlig‘i H.Astanovning 2024-yil 2-apreldagi 04/129-sonli xatiga, tuman adliya bo‘limining 2024-yil 22-apreldagi 5/2-24-sonli xulosasiga hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashining oltinchi chaqiriq, 119-sessiyasi,

QAROR QILADI:

1. Respublika Aerogeodeziya markazi Samarqand hududlararo bo‘linmasi hamda tuzilgan komissiya tomonidan tumanning ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarni xatlovdan o‘tkazish ishlari natijalari ko‘rib chiqish bo‘yicha tuzilgan komissiyaning 2024-yil 02-apreldagi 1/05-sonli yig‘ilish bayoni ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Ishtixon tumani hududidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risida Davlat kadastrlar palatasi Ishtixon filiali boshlig‘i H.Astonovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Respublika Aerogeodeziya markazi Samarqand hududlararo bo‘linmasi hamda tuman hokimining 2024-yil 31-yanvardagi 15-7-95-F/24-sonli farmoyishi asosida tuzilgan komissiya tomonidan tumanning ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarni xatlovdan o‘tkazish ishlari natijalari ko‘rib chiqish bo‘yicha tuzilgan komissiyaning 2024-yil 02-apreldagi 1/05-sonli yig‘ilish bayoniga muvofiq tuman hududidagi ma’muriy hududiy-birliklar chegaralarini belgilash ishlari yakuniga ko‘ra umumiy perimetri 721089 metrni, umumiy maydoni 71822 gektar ekanligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Ishtixon tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlari yakuniy natijalari to‘g‘risidagi ma’lumot 1-ilovaga, ma’muriy-hududiy birliklarning chegaralarini belgilash bo‘yicha kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi (M.Tursunov), “Ishtixon ovozi” gazetasi muharriri (M.Rabbimova) mazkur qarorni ommaviy axborot vositalarida keng yoritish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Ishtixon tuman Kengashining Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya bo‘yicha doimiy komissiyasi (F.Abdurazzaqov) zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi KIYAMOV NURALI KUVANDIKOVICH

Xalq deputatlari Ishtixon tumani
Kengashining
2024-yil 24-apreldagi
VI-119-70-7-95-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Ishtixon tumani hududidagi ma’muriy-hududiy birliklarining chegaralarini belgilash to‘g‘risida
MA’LUMOT

№	Shahar va shaharchalar hamda qishloqlar nomi	Chegara uzunligi (*metr*)	Yer maydoni (*gektar*)
1	Zarband qishlog‘i	117750	19304
2	Qo‘rli qishlog‘i	58187	8272
3	Xalqobod qishlog‘i	79496	7233
4	Haqiqat qishlog‘i	67750	5692
5	Ravot qishlog‘i	41889	3538
6	Fayziobod qishlog‘i	81771	6974
7	Chordara qishlog‘i	63661	5628
8	Azamat qishlog‘i	64939	6418
9	O‘rtaqishloq qishlog‘i	49176	6593
10	Ishtixon shahar	12005	537
11	Mitan shaharcha	10759	239
12	Azamat shaharcha	5732	111
13	Damariq shaharcha	7551	152
14	Qirqyigit shaharcha	8566	134
15	Sug‘ot shaharcha	3097	26
16	Shayxislom shaharcha	11016	234
17	Yangikent shaharcha	6944	113
18	Yangiravot shaharcha	2364	25
19	Odil shaharcha	5585	120
20	Xalqobod shaharcha	4114	66
21	Shayxlar shaharcha	7003	154
22	Bahrin shaharcha	11736	259
	Jami	**721089**	**71822**

Xalq deputatlari Ishtixon tumani
Kengashining
2024-yil 24-apreldagi
VI-119-70-7-95-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Ma’muriy-hududiy birliklarning chegaralarini belgilash bo‘yicha kartografik chizmasi

